

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

X.M.Matqulov	
Nominative field of the concept "Wrestling" in English and Uzbek.....	372
D.M.Uktamovna	
“Mehrobdan chayon” va “Tanazzul” romanlarida tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima uyg‘unligi ...	377
M.B.Siddiqov	
Urush nogironlarini ishga joylashtirishda tibbiy mehnat ekspert komissiyalarning roli.....	381
S.S.Abdullayev, D.M.Obidova	
Yoshlarni ijtimoiy-pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimi	387
R.I.Madaliyev	
Artpedagogika vositasida (teatr sa‘nati orqali) talaba yoshlarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasini rivojlantirish omillari va istiqbollari	391
D.Z.Xudaykulova	
Bolalarning mustaqil badiiy faoliyatlariga rahbarlik qilish metodlari.....	395
Sh.A.Dosbayeva	
Mantiqiy fikrlash mashg‘ulotlarining didaktik ta‘minotini takomillashtirish.....	402
D.A.Xomidova	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalarning dizayn faoliyatini rivojlantirish.....	408
B.S.Sharipova	
Bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarini o‘quvchilarda bioetik bilimlarni shakllantirishga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik zarurati.....	412
T.S.Axmedova	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida “Ilk qadam” davlat dasturidan foydalanish	416
N.M.Aliyev	
Gipotetik-deduktiv metod orqali bo‘lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishning pedagogik modeli	420
A.E.Normatov	
Neft va neft mahsulotlari bilan ifloslangan oqava suvlarini suv o‘simliklari yordamida tozalash	425
I.O.Umarov	
Kompetensiyaviy yondashuv asosida harbiy ta‘lim talabalarida o‘quv-jangovar sifatlarini rivojlantirish metodikasi	428
X.A.Madaminov	
Musobaqa faoliyati sharoitlarida kurashchilarning texnik-taktik imkoniyatlarini yuzaga chiqarish ishonchligi muammosi.....	433
B.Q.Qurbonova, M.Esonmirzayeva	
Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni tarbiya fani asosida milliy kasibga yo‘naltrishning usul va metodlari.....	437
S.M.Boboraximov	
Kichik sinf o‘quvchilarining jismoniy tarbiyasida klasterli tabaqalashtirilgan yondashuvdan foydalanish zarurati.....	441
N.A.Akbarova	
Farg‘ona viloyati musiqa maktablarining respublika va xalqaro tanlovlardagi ishtiroki va natijalari	445
A.A.To‘raxanov, A.A.Ergashev	
Alohida ta‘lim ehtiyojiga ega o‘quvchilar muhitida autizm sindromli bolalar bilan ishlashning klaster mexanizmlari	450
M.M.Abdurahmonova, M.Suyumova	
Umumta‘lim muassasalarida ijtimoiy ish amaliyotini amalga oshirish (Rossiya Federatsiyasi misolida).....	457



UO'K: 37.036:37.015.3

**BOLALARNING MUSTAQIL BADIY FOALIYATLARIGA RAHBARLIK QILISH
METODLARI****МЕТОДЫ РУКОВОДСТВА САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ
ДЕТЕЙ****METHODS OF GUIDING CHILDREN'S INDEPENDENT CREATIVE ACTIVITIES****Xudaykulova Dilbarxon Zokirovna** 

Namangan davlat universiteti, Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning tashabbusi bilan yuzaga keladigan mustaqil badiiy faoliyat, bu faoliyatga pedagogik rahbarlik qilish va bolaga qulay pedagogik sharoit yaratish orqali badiiy faoliyatga qiziqish uyg'otish to'g'risidagi fikrlar berilgan.

Аннотация

В данной статье даны представления о самостоятельной художественной деятельности, происходящей по инициативе детей дошкольного возраста, педагогическом руководстве этой деятельностью, формировании интереса ребенка к художественной деятельности путем создания комфортной педагогической среды.

Abstract

This article provides ideas about independent artistic activity that occurs on the initiative of preschool children, pedagogical guidance of this activity, and the formation of a child's interest in artistic activity by creating a comfortable teaching environment.

Kalit so'zlar: mustaqil faoliyat, metod, sharoit, kuzatish, badiiy materiallar, ta'lim muhiti.

Ключевые слова: самостоятельная деятельность, метод, условия, наблюдение, художественные материалы, образовательная среда.

Key words: independent activity, method, conditions, observation, art materials, educational environment.

KIRISH

Bolalarning mustaqil badiiy faoliyatlarini rivojlantirish muammosi hozirgi davrda dolzarbdir, chunki jamiyatning kreativ fikrlaydigan, har qanday muammolarni hal etishga qodir, hayotning turli sohalarida yangiliklar yaratishga qodir bo'lgan insonlarga bo'lgan ehtiyoji ortib bormoqda.

Mustaqil badiiy faoliyat deyarli doimo bolalarning tashabbusi bilan yuzaga keladi va go'yoki, tarbiyachining bevosita rahbarligisiz bo'lib o'tadi. Biroq, bu faoliyatga pedagogik rahbarlik qilishning zarurligi haqida bilishimiz lozim. Tarbiyachi ta'sirining xususiyati shundaki, u qulay pedagogik sharoit yaratib, bolada badiiy faoliyatga qiziqish uyg'otadi. Bu qanday sharoitlar?¹⁰[1]. Bu eng avvalo, badiiy mashg'ulotlarda shunday shug'ullanishga o'rgatishki, bolalar faqat tarbiyachining buyrug'i va ko'rsatmasiga ko'ra emas, balki uning yordamisiz ham harakat qila olsinlar. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni o'qitishda qo'llaniladigan metodik usullardan foydalanishda bolaning faolligini ham hisobga olishimiz kerak. Bolalar mustaqil badiiy faoliyatlarini tashkil etish uchun ikki tomonlama jarayon sodir bo'ladi, unda bir tomondan tarbiyachi qo'llaydigan o'qitish metodlari harakat qilsa, ikkinchi tomondan bola egallayotgan o'qish usullari harakat qiladi. Ilk go'daklik vaqtda material bilan tanishtirishda tarbiyachi tushuntirish-illyustrativ (xarakat usullarini tushuntirish va ko'rsatish) metodini qo'llagani ma'qul. Bola bu usullarni o'z navbatida reproduktiv egallaydi. Keyinroq pedagog tushuntirish-undash metodini qo'llaydi, bola esa harakatning mustaqil izlanish usullarini egallashga olib kelinadi. Ko'rsatish va batafsil tushuntirish metodi bolalarni

¹⁰ Эстетическое воспитание в детском саду / Под ред. Н. А. Ветлугиной – М., 1985.

raqsning biror elementini ijro etishga, yoki xonandalik intonatsiyasi, soʻz, tovushlar talaffuz qilishga oʻrgatishda, rasm chizishda va shu kabilarda qoʻllanadi. *Mustaqil harakat usullarini shakllantirish metodi* bola ijroning kerakli usulini oʻzi topganda, ijroning yangi, oʻz variantini yaratganda qoʻllanadi. Bola mustaqil harakat qilar ekan, ilgari oʻz tajribasida bor boʻlganlardan ijodiy foydalanadi, namunaga rioya qilib, qandaydir darajada oʻz harakatlarini tahlil qilib, eng qulay usullar izlaydi.

Demak, bola badiiy mustaqil faoliyatining oʻsishiga bilvosita *taʼsir qilish usullari* bir-biri bilan uzviy bogʻliq ekanligini koʻramiz. Bilvosita rahbarlik qilish metodlari har bir bolaga individual xususiyatlarini nazarda tutib, tadbirkorlik va sezgirlik bilan munosabatda boʻlishni talab qiladi. Shuning uchun tarbiyachi oʻz mahoratini kundun-kun takomillashtirib borishi, bolalarni biror sevimli ishga jalb qilishi, ularning har biri bilan uzviy aloqa oʻrnatishi, oʻz namunasi bilan taʼsir oʻtkazishi, oʻz imkoniyatlariga koʻra badiiy tajriba usullarini egallagan boʻlishi kerak. Bularning barchasi pedagogik vositalar xazinasiga kiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bolalar tashabbusi, mustaqillik va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlanishini belgilovchi pedagogik shart-sharoitlarning oʻziga xos xususiyatlari N.A.Vetlugina, I.L.Dzerzhinskaya, V.A.Ezikeeva, T.G.Kazakova, L.N.Komissarova, L.Yu.Pankratova, L.V.Panteleeva, G.N.Panteleev, A.E.Shibitskaya, L.S.Furmina kabi olimlar va oʻqituvchilar tomonidan oʻrganildi, 1980-yilda N.A.Vetlugina tahrir qilgan "Maktabgacha taʼlim muassasalarida mustaqil ijodiy faoliyat" nomli hamkorlikdagi monografiyasida taʼkidlaganidek: "Bolaning faolligi turli xil sanʼat turlari bilan bevosita bogʻliq boʻlsa, ijodiy deb atash mumkin", va bolalar, ularning yoshi xususiyatlariga koʻra, "oʻzlarining ijodiy amaliyotini tashkil etish shaklini topadilar". Bolalarning oʻzlari tashabbuslari boʻyicha faollik koʻrsatadilar, bunda ular oʻzlari uchun mavjud boʻlgan sanʼat turlarini faol oʻzlashtiradilar, oʻz harakatlarini oʻyinlar, mashqlar shaklida tashkil etadilar va ularga reproduktiv yoki ijodiy xarakter beradilar¹¹[2]

Bolalarning boʻsh vaqtlardagi mustaqil faolligi kundalik faoliyatlari jarayonida va mashgʻulotlarda olgan tushunchalaridan paydo boʻladi. N.P.Sakulinaning qayd etishicha, oʻyinda mustaqil ijodiy va kreativ faollik yuzaga keladi. Chizish jarayoni, modellashtirish va applikasiya va qurish -yasash osonlik bilan va toʻgʻridan-toʻgʻri oʻyinga oʻtadi – bolalar tomonidan tayyorlangan oʻyinchoqlar boʻlib xizmat qiladi¹²[3].

T.G.Kazakova mustaqil faoliyatning eng ajoyib shakllaridan biri oʻyin ekanligini ham aniqlaydi, u faoliyat mazmuniga qarab farq qilishi mumkin. Ushbu shakllar parallel holda mavjud, har bir yosh guruhida boʻlib oʻtadi, ammo mashgʻulotlar shakli maktabgacha katta yoshdagi bolalar uchun xosdir¹³[4]. Hatto Mariya Montessori ham 3 yoshdan 6 yoshgacha boʻlgan davrni bolaning mustaqilligi rivojlanishidagi eng muhim davrlardan biri, deb hisoblagan va har bir bola "oʻzini quruvchi" ekanligini taʼkidlagan.¹⁴[5]

G.G.Grigoreva quyidagilarni qayd etadi: "Bolalarning mustaqil faolligiga kundalik rejimda oʻrin va vaqt berilishi kerak". Shuningdek, bolalar mustaqil badiiy faoliyatiga rahbarlikning oʻziga xos xususiyatlari aniqlanadi¹⁵[6] :

1. Mashgʻulot jarayonida oʻrganish va mustaqil faoliyat usullarini ishlab chiqish.
2. Bolalarni atrofdagi dunyo bilan tanishish, ularda badiiy asarlar, xalq ogʻzaki ijodi ob'ektlari, bayramlar, koʻngil ochish kabi yorqin taassurotlar paydo boʻlishi.
3. Oila davrasida ushbu faoliyat uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish uchun oila bilan ishlash.

MUHOKAMA

¹¹ Самостоятельная художественная деятельность дошкольников. / Н.А.Ветлугина. – М. : Педагогика, 1980. – 208 с.

¹² Система эстетического воспитания в детском саду. / Н.А.Ветлугина. – М., 1962. – 370 с.

¹³ Самостоятельная художественная деятельность дошкольников. / Н.А.Ветлугина. – М. : Педагогика, 1980. – 208 с.

¹⁴ УДК 37.037.1 DOI: 10.18413/2313-8971-2020-6-4-0-2 Волошина Л.Н., Галимская О.Г., Никулина О.В. Проблемы формирования самостоятельности и активности старших дошкольников в двигательной деятельности. Белгородский государственный национальный исследовательский университет, ул. Студенческая, 14, Белгород, 308007, Россия voloshina_l@bsu.edu.ru Статья поступила 12 августа 2020; принята 10 декабря 2020; опубликована 31 декабря 2020

¹⁵ Григорьева Г.Г. Развитие дошкольника в изобразительной деятельности. – М., 1999. – 344 с.

ILMIY AXBOROT

Bolalarning iqtidori aynan ularning yoshlik chog'ida ochilishi kerak. Bolalarning yoshi ulg'ayishi bilan unung ongi ham o'sishi, analitik qobiliyatlarining shakllanishi va natijada bolaning tasviriy - badiiy faoliyati ham mazmunan boyib borishini pedagog o'z ish faoliyati jarayonida yaqqol farqlashi va to'g'ri tahlil qila bilishi lozim.¹⁶[7] Bola o'quv topshiriqlarini mustaqil bajarishni o'rganib olsa, u mashg'ulotdan tashqari vaqtlarda xam shunday harakat qila oladi.

Kichik, o'rta, katta, tayyorlov guruhi bolalarining mashg'ulotlardan tashqari vaqtlardagi mustaqil badiiy faoliyatlarida muhim ahamiyatga ega bo'lgan tasviriy faoliyat turini qay darjada namoyon bo'lishini kuzatganimizda, turli yosh guruh bolalarida asosan bir xil qiziqishlar ustunligi sezildi:

- kichik yosh bolalarning asosan konstruktiv qurish-yasash, o'yin va boshqa badiiy faoliyatlar bilan shug'ullanishlarini, tasviriy faoliyatning rasm chizish turiga deyarli qiziqish bildirmayotganliklari;

- o'rta, katta va tayyorlov guruhlaridagi bolalarning ham tasviriy faoliyatning asosan konstruksiya ishi, o'yin va boshqa badiiy faoliyatlarga qiziqishlari yuqoriligi kuzatildi. Kuzatishlar asosida tasviriy faoliyatning rasm chizish turiga bolalarning qiziqishlari xaqidagi dastlabki xulosalarni oldik. (1-ilova)

Guruhlar	Bolalar shug'ullanadigan tasviriy faoliyatning turlari				O'yin va boshqa faoliyatlar
	Rasm chizish	Loy va plastilindan yasash	Applikatsiya ishi	Konstruksiya tuzish	
Kichik guruh	4%	8%	6%	11%	71%
O'rta guruh	6%	18%	8%	15%	53%
Katta guruh	6	18	10%	16%	50%
Tayyorlov guruh	10	18	12%	18%	42%

Mustaqil rasm chizishga eng katta qiziqish ko'rsatadigan bolalar bilan individual ish olib borildi:

- kichik, o'rta va katta yosh bolalari uchun ularning yosh va individual xususiyatlariga mos keluvchi noan'anaviy texnik usullarni toifalab chiqildi.(2-ilova). Tasviriy faoliyatning rasm chizish turi bo'yicha bolajonlarga oson, qiziqarli, ular bemalol uddasidan chiqa oladigan texnik usullarni kerakli jihoz va ko'rgazmalardan samarali foydalangan holda kundalik faoliyatlar jarayonida (mashg'ulotlarda rivojlanish markazlarida, sayrlarda) ko'rsatib, mustaqil bajarishga o'rgatib borildi. (2-ilova)

(2-ilova)

Kichik yosh	O'rta yosh	Katta yosh
Barqmoqlar bilan rasm chizish(akvarel, guash bo'yoqlari bilan)	Porolon,qapqoqlar bilan muhr	Qum va tuz bilan rasm chizish
Kaftlar bilan rasm chizish	Mumli bo'r+akvarel; sham+akvarel	Sovun ko'piklari bilan rasm chizish
Muhrlar(mochalka,kartoshka, ...) bilan iz qoldirish usuli	Barg izlari	G'ijimlangan qog'oz bilan rasm chizish
	Predmetli va peyzajli monotopiya	Predmetli va peyzajli monotopiya
	Naychadan havoni puflash yo'li bilan rasm chizish	Trafaret bilan nusxa chizish
	Paxtali cho'plar bilan rasm chizish; paxtali yostiqchalar bilan	Plastinografiya

¹⁶ Maktabgacha yoshdagi bolalarni tasviriy qobiliyatini aniqlovchi tushuncha va tasviriy qobiliyatlarni rivojlantirish bosqichlari. D.Xudaykulova.www.journal.namdu.uz ISSN: 2181-0427

Monotopiya usuli




Paxtali yostiqlar bilan rasm chizish usuli+klyaksografiya



Sham+akvarel+to'z usuli. Kerakli jihozlar.





Muhrlar va shtamplar bo'yash texnikasi - chizma qog'oz varag'iga mo'yqalam bilan emas, balki bosib chiqarish usuli bilan bajariladi. Siz kartoshka(sabzi, qizilcha,...)dan qulay shtampni kesib qo'yishingiz mumkin, masalan, barg shaklidagi izni o'yib tayyorlash va bo'yoqqa botirib, qog'ozga nusxa tushirish.



Mustaqil badiiy faoliyatga rahbarlik qilish metodlarini samaradorligini aniqlash ustida ishlash jarayonida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

1. Guruhdagi bolalar ko'rgazmali materiallardan, asosan, bo'yoqlar va rangli qalamlardan rasm chizishda faol foydalandilar.

2. Bo'sh vaqtlarida mustaqil rasm chizishni yoqtiradigan bolalar soni ko'paydi.
3. Ish yakunida guruhda aniq bir sevimli mashg'ulotlari bo'lmagan bolalar qolmadi, ularning har biri o'zini qandaydir ijodiy va samarali shaklda idrok eta oldi.
4. Bolalar egallagan rasm chizish ko'nikmalari mustaqil tasviriy faoliyatning rivojlanishiga, bolalar g'oyalarining namoyon bo'lishiga ta'sir ko'rsatdi, shuningdek, tasviriy materialdan foydalanishda mustaqillik, faollik darajasini oshirdi.

NATIJALAR

Erishilgan natijadorlik omillari:

1. O'tkazilgan usulning dastur talablariga mosligi.
2. Tanlangan texnik usullar bolalar yoshi va individual xususiyatlariga mos ekanligi.
3. Noan'anaviy texnik usullarni kerakli jihozlar, badiiy materiallar bilan maqsadli va izchillik bilan olib borilganligi.

Bolalar tomonidan tasviriy faoliyatning rasm chizish turi bo'yicha texnik usullarni o'zlashtirilishining monitoringi								
T/r	Bolalarning ismi va sharifi	Guruh	Dastlabki holat			Natija		
			Yaxshi	O' rta	Past	Yaxshi	O' rta	Past
1.	Aliyev Muhammadkarim	kichik			√		√	
2.	Baxtiyorov Imronbek	kichik		√		√		
3.	Vayitov Toxirjon	kichik		√		√		
4.	Dadabayeva Muslima	kichik			√		√	
5.	Zokirova Saida	kichik			√	√		
6.	Sobirov Odiljon	o'rta			√		√	
7.	Xolmatova Diyora	o'rta			√	√		
8.	Tolibjanova Fero'za	o'rta		√		√		
9.	Abdullayeva Gulnoza	o'rta		√		√		
10.	Sayfutdinov Alisher	o'rta						
11.	Doniyorov Xurshidbek	katta			√	√		
12.	Adxamova Mahliyo	katta			√	√		
13.	Bannayev Saidakmal	katta			√	√		
14.	Yunusov Bahodir	katta		√		√		
15.	Ergasheva Mushtariy	katta		√		√		
16.	Aliyeva Muharram	tayyorlov		√		√		
17.	Botirova Sumayya	tayyorlov			√	√		
18.	Saidbekov Saidakmal	tayyorlov			√	√		
19.	Komilov Fazliddin	tayyorlov			√	√		
20.	Ikromova Marxabo	tayyorlov		√		√		

Ish tugagandan so'ng tasviriy faoliyat turlarining bolalar tomonidan mustaqil tashkil etilishining o'sish ko'rsatkichlari.

Guruhlar	Tasviriy faoliyat turlari				O'yin va boshqa faoliyatlar
	Rasm chizish	Loy va plastilindan yasash	Applikatsiya ishi	Konstruksiyalar tuzish	
Kichik guruh	8%	8%	6%	11%	67%
O'rta guruh	12%	18%	8%	15%	47%
Katta guruh	20%	18%	10%	16%	36%
Tayyorlov guruh	25%	18%	12%	18%	27%

ILMIY AXBOROT

Natijaga ko'ra, kichik, o'rta va katta yosh bolalarning mashg'ulotdan tashqari vaqtlarda mustaqil tasviriy faoliyatlari jarayonida rasm chizish turi bo'yicha ijodiy faolligi sezilarli o'rin egalladi. Vazifalarni bajarish, bolalarning tashabbusi va mustaqilligini ta'minlash jarayonida faollik jarayonining quvonchi oshdi. Bolalar mashg'ulotlardan tashqari vaqtlarda mustaqil tarzda yaxshi natijalar ko'rsatdilar.

Shunday qilib, tajriba natijalarini baholashimiz mumkinki, bolalar mustaqil ijodiy faoliyatlarini to'g'ri tashkil etish orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy qobiliyat ko'rsatkichlarini yaxshilash mumkin.

XULOSA

Mustaqil badiiy faoliyat deyarli doimo bolalarning tashabbusi bilan yuzaga keladi va go'yoki, tarbiyachining bevosita rahbarligisiz bo'lib o'tadi. Bola mustaqil badiiy faoliyatiga pedagogik rahbarlik qilishda tarbiyachi ta'sirining xususiyati shundaki, u qulay pedagogik sharoit yaratib, bola uchun quvnoq, o'yinli ta'limni samarali metodlarini qo'llaydi, bolalarda mustaqillik va ijodkorlik qobiliyatlarini namoyon qilishga zamin yaratadi. Bu sharoitlarni yarata olish tarbiyachining bola yoshiga, individual xususiyatlariga, metodik bilimlariga, tajribaga tayanib faoliyat yuritishi bilan bog'liqdir. Bola o'quv topshiriqlarini mustaqil bajarishni o'rganib olsa, u mashg'ulotdan tashqari vaqtlarda xam shunday harakat qila oladi. Bu esa jamiyatni har qanday muammolarni hal etishga qodir, hayotning turli sohalarida yangiliklar yarata oladigan insonlarga bo'lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi.

Pedagogik jarayonlarning samaradorligi nafaqat ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etishga, balki mustaqil ta'limni yo'lga qo'yish, ta'lim oluvchilarda o'zini o'zi tarbiyalash ko'nikmalarini shakllantirish, shuningdek, ularning refleksiv faoliyatini hamda o'zaro ta'sir jarayonini tashkil etish zarur. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonlarni tashkil etishda shaxslararo munosabatlar, bola shaxsining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi tarbiyaviy munosabatlar jarayonining mavjudligi va ularning o'ziga xos xususiyatlarini ham inobatga olinishi zarur¹⁷[8].

Shunday qilib, bolalar mustaqil badiiy faoliyatiga tarbiyachining rahbarligi u qo'llaydigan sezgir yo'l-yo'riqlar, kreativ g'oyalar, bolalar bilan individual ishlash tajribasi, shuningdek, bolalarning qiziqishlari va moyilliklarini hisobga olgan holda yaratib bergan shart-sharoitlari asosida amalga oshadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Эстетическое воспитание в детском саду / Под ред. Н. А. Ветлугиной – М., 1985.
2. Самостоятельная художественная деятельность дошкольников. / Н.А.Ветлугина. – М. : Педагогика, 1980. – 208 с.
3. Система эстетического воспитания в детском саду. / Н.А.Ветлугина. – М., 1962. – 370 с.
4. Самостоятельная художественная деятельность дошкольников. / Н.А.Ветлугина. – М. : Педагогика, 1980. – 208 с.
5. УДК 37.037.1 DOI: 10.18413/2313-8971-2020-6-4-0-2 Волошина Л.Н., Галимская О.Г., Никулина О.В. Проблемы формирования самостоятельности и активности старших дошкольников в двигательной деятельности. Белгородский государственный национальный исследовательский университет, ул. Студенческая, 14, Белгород, 308007, Россия
voloshina_l@bsu.edu.ru Статья поступила 12 августа 2020; принята 10 декабря 2020; опубликована 31 декабря 2020
6. Григорьева Г.Г. Развитие дошкольника в изобразительной деятельности. – М., 1999. – 344 с.
7. D.Xudaykulova. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tasviriy qobiliyatini aniqlovchi tushuncha va tasviriy qobiliyatlarni rivojlantirish bosqichlari. Scientific Bulletin of NamSU-Научный вестник НамГУ-NamDU ilmiy axborotnomasi-2023-yil_5-son. www.journal.namdu.uz ISSN: 2181-0427
8. D.Xomidova. NamDU.Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagogik faoliyatlarni tashkil etishda tarbiyachining mahorati. "Xalq ta'limi" ilmiy-metodik jurnali. 2023. № 5/2. www.pubedu.uz

¹⁷ D.Xomidova. NamDU.Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagogik faoliyatlarni tashkil etishda tarbiyachining mahorati. "Xalq ta'limi" ilmiy-metodik jurnali. 2023. № 5/2. www.pubedu.uz